“Vatan taraqqiyotiga mening hissam” shiori ostida **“O‘zbekiston yoshlar nigohida”** mavzusida **“Eng yaxshi rasmlar”** va **“Ona Vatanimning buyuk farzandlari”, “O‘zbekistonlik ekanimdan faxrlanaman”, “Vatanga xizmat qilish – buyuk maqsadim”** mavzularida **“Eng yaxshi maqolalar”** tanlovlarini o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi

NIZOM

I. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom universitetda tahsil olayotgan talaba-yoshlar o‘rtasida **“Vatan taraqqiyotiga mening hissam”** shiori ostida **“O‘zbekiston yoshlar nigohida”** mavzusida **“Eng yaxshi rasmlar”** va **“Ona Vatanimning buyuk farzandlari”, “O‘zbekistonlik ekanimdan faxrlanaman”, “Vatanga xizmat qilish – buyuk maqsadim”** mavzularida **“Eng yaxshi maqolalar”** tanlovlarini (keyingi o‘rinlarda-tanlovlar) o‘tkazish tartibini belgilaydi.

2. Tanlovlarda universitetning barcha talaba-yoshlari o‘z ijodiy ishlari (rasmlari va maqolalari) bilan ishtirok etishlari mumkin.

II. Tanlovning maqsadi va vazifalari

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 1-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35 yilligini keng nishonlashga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida”gi PQ-120-son qarori ijrosini ta’minlash bo‘yicha Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tizimida Yangi O‘zbekistonning Uchinchi Renessans yaratuvchilari qiyofasini o‘zida aks ettiruvchi ilmiy-ommabop, sport, novatorlik va volontyorlik loyihalarini tashkil etish, mustaqillikka bag‘ishlangan viktorinalar, ko‘rik-tanlovlar, musobaqalarini tashkil etish, vatanparvarlik g‘oyalarini tarannum etuvchi konsert dasturlari va badiiy kechalar uyushtirish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasidagi bandlar ijrosini ta’minlash maqsadida o‘tkaziladi.

Tanlovlarning vazifalari quyidagilardan iborat:

-talaba-yoshlar o‘rtasida sog‘lom ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini ta’minlash hamda ularning turli zararli odatlar ta’siriga tushib qolishining oldini olish;

-yosh avlodni har tomonlama yetuk, yuksak ma’naviyatli, intellektual salohiyatli, ota-onasiga va Vataniga sadoqatli komil inson etib tarbiyalash;

-talaba-yoshlarning o‘z iqtidorlarini namoyon etishlari uchun zarur sharoitlar yaratish hamda mustaqil va erkin fikrlaydigan iste’dodli talaba-yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash;

-talaba-yoshlarning ijodiy ishlarini keng jamoatchilikka yetkazish.

III. Tanlovlarni o‘tkazish tartibi va muddatlari

4. Tanlovni tashkil etish va o‘tkazish universitet Yoshlar bilan ishlash, ma’naviyat va ma’rifat bo‘limi tomonidan tashkil etiladi va o‘tkaziladi.

5. Tanlovlarda Qarshi davlat texnika universitetida tahsil olayotgan talabalar o‘z ijodiy ishlari (rasmlari va maqolalari) bilan ishtirok etishlari mumkin.

6. Tanlovlarning har bir yo‘nalishiga mas’ul shaxslar boshchiligida tashkiliy ishchi guruhlari shakllantiriladi, shuningdek, ishtirokchilarning ijodiy ishlarini

shaffof va adolatli baholash maqsadida soha mutaxassisidan iborat Hakamlar hay’ati tuziladi.

7. Tanlovlar universitet bosqichida tashkil etiladi va 22-sentabr kuni universitetning bosh binosida o‘tkaziladi:

IV. Tanlov shartlari va baholash mezonlari

8. Tanlovlar doirasida mavzuga oid rasmlar va maqolalar qabul qilinadi va ko‘rib chiqiladi. Rasmlar qalam, rangli qalam, flomaster, bo‘yoqlar (guash, akvarel va boshqalar) yordamida A3 formatdagi qog‘ozga chizilishi, maqolalar esa –

- mavzuning mazmun-mohiyati to‘laqonli ochib berilganligi;
- maqolalarning stilistik va grammatik jihatdan to‘g‘ri yozilganligi;
- mavzuni yoritishda adabiyotlardan foydalanganlik darajasi;
- tahliliy yondashuvlar, mustaqil fikrlarning aniq bildirilganligi;
- mavzuni yoritishga o‘ziga xos ijodkorlik xususiyatlari ifoda etilganligi;
- mavzuni yoritishda hayotiy misollardan keng foydalanilganligi;
- mavzuga oid dolzarb masalalar yuzasidan takliflar keltirilganligi bo‘lishi hamda maqola yozishda **“Imrat”** talablari asosida (matn Microsoft Word dasturida, Times New Roman shriftida, 14 o‘lchamda, 1,5 intervalda) tayyorlanadi;
- sahifa maydonlari: yuqoridan va pastdan 2 sm, chapdan 3 sm, o‘ngdan 1,5 sm;
- maqola hajmi 3 betdan (oxirgi sahifaning to‘liqligi 75% dan kam bo‘lmasligi lozim) kam bo‘lmasligi, 7 betdan oshmasligi lozim;
- birinchi qatorda maqola sarlavhasi bosh harflarda, qalin shrift bilan va o‘rtadan yoziladi;
- sarlavha ostida muallifning familiyasi, ismi, sharifi, ish joyi, lavozimi, ilmiy darajasi va unvoni, telefon raqami hamda elektron manzili ko‘rsatiladi;
- annotatsiya va kalit so‘zlar o‘zbek, rus va ingliz tillarida beriladi;
- foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati maqola oxirida keltiriladi, havolalar matn ichida ko‘rsatiladi;) qat’iy rioya etilishi shart.

9. Rasmlar Hakamlar hay’ati ko‘z o‘ngida tanlov e’lon qilingan kunning o‘zida chiziladi.

10. Maqolalar esa tanlov o‘tkazish kunidan kamida 3 (uch) kun oldin 2026-yil 19-sentabr kuniga qadar 2 nusxada 1-nusxa tanlov ishtirokchisi haqidagi ma’lumotlar to‘liq shaklida yozilgan, 2-nusxada esa aksincha tanlov ishtirokchisi haqidagi ma’lumotlar aks ettirilmagan shaklda Yoshlar bilan ishlash, ma’naviyat va ma’rifat bo‘limiga yetkazilishi lozim.

11. Ijodiy ishlar 100 ballik tizim asosida Hakamlar hay’ati tomonidan shaffof va adolatli baholanadi.

12. “Eng yaxshi rasmlar” tanlovida ijodiy ishlar quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

- ishning mavzuga mosligi, giyohvandlikning zararli oqibatlarini aniq va ta’sirchan ifodalash darajasi hamda uning muhim ijtimoiy ahamiyati — 25 ball;
- original g‘oya va fikrlarning ifodalashi, shuningdek zamonaviy san’at yo‘nalishlaridan foydalanish darajasi — 25 ball;

- texnik mahorat, badiiy texnikaning mukammalligi va detallarga e’tibor darajasi
- 25 ball;

- estetik jozibadorlik, rang va kompozitsiya uyg‘unligi, shaklning vizual va hissiy ta’siri — 25 ball.

Jami: 100 ball

13. “Eng yaxshi maqolalar” tanlovida ijodiy ishlar quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

- mavzuning mazmun-mohiyati to‘laqonli ochib berilganligi – 20 ballgacha.

- maqolalarning stilistik va grammatik jihatdan to‘g‘ri yozilganligi – 10 ballgacha.

- mavzuni yoritishda adabiyotlardan foydalanganlik darajasi – 15 ballgacha.

- tahliliy yondashuvlar, mustaqil fikrlarning aniq bildirilganligi – 15 ballgacha.

- mavzuni yoritishda hayotiy misollardan keng foydalanilganligi – 10 ballgacha.

- mavzuni yoritishga o‘ziga xos ijodkorlik xususiyatlari ifoda etilganligi – 10 ballgacha.

- mavzuga oid dolzarb masalalar yuzasidan takliflar keltirilganligi – 20 ballgacha.

Jami: 100 ball.

14. Ijodiy ishda yoritilayotgan mavzu, fakultet nomi va ishtirokchining ta’lim yo‘nalishi guruhi hamda kursi ko‘rsatishga ruxsat etiladi.

V. Mualliflik huquqlari

15. Tanlovlarga taqdim etilgan ijodiy ishlarda mualliflik huquqlari buzilgan taqdirda, ishni taqdim etgan ishtirokchi javobgar hisoblanadi.

16. Tashkilotchilar tanlovlarga taqdim etilgan materiallardan tadbirlarni ommaviy axborot vositalarida keng yoritish, maxsus to‘plamlar tayyorlash, shuningdek, targ‘ibot ishlarida beg‘araz foydalanish va tarqatish huquqini o‘zida saqlab qoladi.

VI. Tanlov g‘oliblarini taqdirlash

17. Har bir tanlovning universitet bosqichida 1-, 2- va 3-o‘rinni egallagan ishtirokchilar universitet rektori tomonidan diplom hamda quyidagi

“Eng yaxshi rasmlar” tanlovi

1-o‘rin bazaviy stipendiya miqdorining 1,5 (bir yarim) barobari

2-o‘rin bazaviy stipendiya miqdorining 1 (bir) barobari

3-o‘rin bazaviy stipendiya miqdorining 0,50 (yarim) barobari

bir martalik pul mukofoti bilan taqdirlanadi.

“Eng yaxshi maqolalar” tanlovi

1-o‘rin bazaviy stipendiya miqdorining 1,5 (bir yarim) barobari
2-o‘rin bazaviy stipendiya miqdorining 1 (bir) barobari
3-o‘rin bazaviy stipendiya miqdorining 0,50 (yarim) barobari
bir martalik pul mukofoti bilan taqdirlanadi.

VII. Yakuniy qoidalar

18. Tanlovning ishchi tili: davlat tili.

19. Tanlov natijalari universitetning ijtimoiy tarmoqlarida va rasmiy veb saytlarida e’lon qilib boriladi.

20. Tanlov ishtirokchisining tanlovning yakuniy bosqichini tashkil etish va o‘tkazish, shuningdek uning natijasi bilan bog‘liq murojaati bir ish kunida ko‘rib chiqiladi.

I. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom universitetda tahsil olayotgan talaba-yoshlar o‘rtasida **“Mustaqil O‘zbekiston – mening faxrim”** mavzusida **“Eng yaxshi insholar”** tanlovlarini (keyingi o‘rinlarda tanlov) o‘tkazish tartibini belgilaydi.

2. Tanlovda universitetning barcha talaba-yoshlari o‘z ijodiy ishlari (insholari) bilan ishtirok etishlari mumkin.

II. Tanlovning maqsadi va vazifalari

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 1-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35 yilligini keng nishonlashga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida”gi PQ-120-son qarori ijrosini ta’minlash bo‘yicha Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tizimida Yangi O‘zbekistonning Uchinchi Renessans yaratuvchilari qiyofasini o‘zida aks ettiruvchi ilmiy-ommabop, sport, novatorlik va volontyorlik loyihalarini tashkil etish, mustaqillikka bag‘ishlangan viktorinalar, ko‘rik-tanlovlar, musobaqalarini tashkil etish, vatanparvarlik g‘oyalarini tarannum etuvchi konsert dasturlari va badiiy kechalar uyushtirish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasidagi bandlar ijrosini ta’minlash maqsadida o‘tkaziladi.

4. Tanlovning vazifalari quyidagilardan iborat:

- talaba-yoshlar o‘rtasida sog‘lom ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini ta’minlash hamda ularning turli zararli odatlar ta’siriga tushib qolishining oldini olish;
- yosh avlodni har tomonlama yetuk, yuksak ma’naviyatli, intellektual salohiyatli, ota-onasiga va vataniga sadoqatli komil inson etib tarbiyalash;
- talaba-yoshlarning o‘z iqtidorlarini namoyon etishlari uchun zarur sharoitlar yaratish hamda mustaqil va erkin fikrlaydigan iste’dodli talaba-yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash;
- talaba-yoshlarning ijodiy ishlarini keng jamoatchilikka yetkazish.

III. Tanlovni o‘tkazish tartibi va muddati

5. Tanlovni tashkil etish va o‘tkazish universitet Yoshlar bilan ishlash, ma’naviyat va ma’rifat bo‘limi tomonidan tashkil etiladi va o‘tkaziladi.

6. Tanlovning universitet bosqichida mas’ul shaxslar boshchiligida tashkiliy ishchi guruhlari shakllantiriladi, shuningdek, ishtirokchilarning ijodiy ishlarini shaffof va adolatli baholash maqsadida kamida 5 (besh) nafar soha mutaxassisidan iborat Hakamlar hay’ati tuziladi.

7. Tanlov 1 bosqichda tashkil etiladi va 22-sentabrda universitetning bosh binosida o‘tkaziladi:

IV. Tanlov shartlari va baholash mezonlari

8. Tanlov doirasida mavzuga oid insholar qabul qilinadi va ko‘rib chiqiladi.

- Insho 12 varaqli muhrlangan daftarga qo‘lda yozilishi shart.
- Insho, tanlov o‘tkazish kunida barcha ishtirokchilar bir vaqtning o‘zida mas’ullar hamda Hakam hay’ati ko‘z o‘ngida yoziladi.

9. Ijodiy ishlar 100 ballik tizim asosida Hakamlar hay’ati tomonidan shaffof va adolatli baholanadi.

10. “Eng yaxshi insholar” tanlovida ijodiy ishlar quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

- inshoning imloviy savodxonligi, so‘z boyligi va uslubiy mahorati — 25 ball;
- mavzuning to‘laqonli ochib berilganligi — 25 bal1;
- mavzuga oid mavjud muammolarni tahlil qilish va ularning yechimi bo‘yicha takliflar bildirish darajasi — 25 ball;
- amalga oshirilayotgan islohotlarga nisbatan shaxsiy munosabat, ular bo‘yicha xulosaviy fikrlarning mavjudligi va ushbu fikrlarni aniq va ta’sirchan ifoda etish mahorati — 25 ball.

Jami: 100 ball

V. Mualliflik huquqlari

11. Tanlovga taqdim etilgan ijodiy ishlarda mualliflik huquqlari buzilgan taqdirda, ishni taqdim etgan ishtirokchi javobgar hisoblanadi.

12. Tashkilotchilar tanlovga taqdim etilgan materiallardan tadbirlarni ommaviy axborot vositalarida keng yoritish, maxsus to‘plamlar tayyorlash, shuningdek, targ‘ibot ishlarida beg‘araz foydalanish va tarqatish huquqini o‘zida saqlab qoladi.

VI. Tanlov g‘oliblarini taqdirlash

13. Tanlovning universitet bosqichida 1-, 2- va 3-o‘rinni egallagan ishtirokchilar universitet rektori tomonidan diplom va universitetning budjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan quyidagi taqdirlanadi.

“Eng yaxshi rasmlar” tanlovi g‘oliblari:
1-o‘rin bazaviy stipendiya miqdorining 1,5 (bir yarim) barobari
2-o‘rin bazaviy stipendiya miqdorining 1 (bir) barobari
3-o‘rin bazaviy stipendiya miqdorining 0,50 (yarim) barobari
bir martalik pul mukofoti bilan taqdirlanadi.

VII. Yakuniy qoidalar

14. Tanlovning ishchi tili: davlat tili.

15. Tanlov natijalari universitetning ijtimoiy tarmoqlarida va rasmiy veb saytlarida e’lon qilib boriladi.

16. Tanlov ishtirokchisining tanlovning yakuniy bosqichini tashkil etish va o‘tkazish, shuningdek uning natijasi bilan bog‘liq murojaati bir ish kunida ko‘rib chiqiladi.

“Mustaqil O‘zbekiston – mening faxrim” mavzusida “Eng yaxshi insholar” tanlovini baholovchi Hakamlar hay’ati
RO‘YXATI

T/r	F.I.Sh	Lavozimi
1.	**Begimov Odil Tuxtamishovich**	O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti
2.	**Xujayev Anvar G‘ulomovich**	O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi katta o‘qituvchisi
3.	**Shodmonova Nigora Irgashevna**	O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti v.b
4.	**Yarmatova Mexriniso Azamatovna**	O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi katta o‘qituvchisi
5.	**Adilova Dilorom Qodirovna**	O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi PhD dotsent v.b

“Ona Vatanimning buyuk farzandlari”, “O‘zbekistonlik ekanimdan faxrlanaman”, “Vatanga xizmat qilish – buyuk maqsadim” mavzularida **“Eng yaxshi maqolalar” tanlovini baholovchi Hakamlar hay’ati**
RO‘YXATI

T/r	F.I.Sh	Lavozimi
1.	**Begimov Odil Tuxtamishovich**	O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti
2.	**Xujayev Anvar G‘ulomovich**	O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi katta o‘qituvchisi
3.	**Shodmonova Nigora Irgashevna**	O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti v.b
4.	**Yarmatova Mexriniso Azamatovna**	O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi katta o‘qituvchisi
5.	**Adilova Dilorom Qodirovna**	O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi PhD dotsent v.b
6.	**Eralov Azamat Jomirodovich**	Ijtimoiy va gumanitar fanlar kafedrasi o‘qituvchisi
7.	**Imomov Bobur Xo‘janazarovich**	Ijtimoiy va gumanitar fanlar kafedrasi o‘qituvchisi

“Vatan taraqqiyotiga mening hissam” shiori ostida **“O‘zbekiston yoshlar nigohida”** mavzusida **“Eng yaxshi rasmlar” tanlovini baholovchi**

Hakamlar hay’ati

RO‘YXATI

T/r	F.I.Sh	Lavozimi
1.	**Murtazayev Abror Odilovich**	Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor
2.	**Toshniyazov Umirbek Xurramovich**	Yoshlar bilan ishlash, ma’naviyat va ma’rifat bo‘limi boshlig‘i
3.	**Ishankulova Gavhar Norkulovna**	Xotin-qizlar masalalari bo‘yicha rektor maslahatchisi
4.	**Xusainov G‘ayrat Tursunovich**	Rejissor
5.	**Samadov Sardor Bekjon o‘g‘li**	Universitet yoshlar yetakchisi